

MOTIVATSION YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KREATIV FIKARLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Toshnazarova Mohinur O'sarali qizi
Qo'qon DU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur ishda motivatsion yondashuv asosida pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kreativ fikrlashning pedagogik-psixologik asoslari, talabalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish omillari hamda motivatsiyaning o'quv jarayonidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, ichki va tashqi motivatsiya vositalaridan samarali foydalanish orqali talabalarining mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga noodatiy yechim topish qobiliyati hamda innovatsion faoliyatga tayyorgarligini oshirish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar. motivatsion yondashuv, kreativ fikrlash, pedagogika ta'lim yo'nalishi, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, innovatsion faoliyat, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, refleksiya, pedagogik texnologiyalar, ijodiy tafakkur, ta'lim samaradorligi.

Аннотация. В данной работе анализируется методология развития навыков творческого мышления у студентов педагогических специальностей на основе мотивационного подхода с теоретической и практической точек зрения. В исследовании освещаются педагогические и психологические основы творческого мышления, факторы формирования творческого мышления у студентов и роль мотивации в образовательном процессе. Также показаны способы повышения самостоятельности мышления студентов, способности находить нестандартные решения проблемных ситуаций и их готовности к инновационной деятельности посредством эффективного использования инструментов внутренней и внешней мотивации.

Ключевые слова: мотивационный подход, творческое мышление, педагогическое образование, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, инновационная деятельность, интерактивные методы, проблемно-ориентированное обучение, рефлексия, педагогические технологии, творческое мышление, эффективность обучения.

Abstract. This work analyzes the methodology for developing creative thinking skills of students of pedagogical education based on a motivational approach from a theoretical and practical perspective. The study highlights the pedagogical and psychological foundations of creative thinking, factors for the formation of creative thinking in students, and the role of motivation in the educational process. It also shows

ways to increase students' independent thinking, the ability to find unusual solutions to problem situations, and their readiness for innovative activities through the effective use of internal and external motivation tools.

Keywords. motivational approach, creative thinking, pedagogical education, internal motivation, external motivation, innovative activities, interactive methods, problem-based learning, reflection, pedagogical technologies, creative thinking, educational effectiveness.

Kirish. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda asosiy bo'g'inlaridan biri – tadqiqot etilayotgan muammoning ijobiy yechimini kafolatlashi nazarda tutilayotgan metodikani shakllantirish va uni amaliyotga tatbiq etish choralarini belgilash hisoblanadi.

Mazmunan “o'qitish metodikasi” tushunchasi “o'qitish va tarbiyalashning usullari, shakllari, metodlari va vositalari to'g'risidagi qarashlar”ni; “qandaydir aniq maqsadga ega harakatni amalga oshirish uchun tayyor “retsept, algoritm, ish tartibi” ni anglatadi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, motivatsion yondashuv asosida pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining kreativ fikarlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi tegishli ta'limni samarali “o'qitish maqsadi (ta'limiy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad, tarbiyaviy maqsad, amaliy maqsad), tamoyillari, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, o'qitishning umumiy metodlari va xususiy metodlari”, ta'lim texnologiyalari kabilarni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Motivatsion yondashuv asosida pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining kreativ fikarlash ko'nikmalarini rivojlantirishning maqsadi, bosqichlari va tamoyillari nazariy xarakterga ega bo'lgani bois ular haqida ishning avvalgi bobida batafsil so'z yuritildi. Ayni o'rinda tegishli jarayonning shakllari, metodlari, vositalari, o'qitishning umumiy metodlari va xususiy metodlari, ta'lim texnologiyalari to'g'risida so'z yuritiladi.

Muhokama va natijalar. I. Tajriba-sinov ishi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion xarakterdagi ta'lim shakllari:

1. Munozarali ma'ruza. Kreativ ta'limning mazkur shakli an'anaviy ma'ruzadan, eng avvalo, nazariy axborotlarni talabalar bilan birgalikda bahs-munozaraga kirishgan holda yetkazib berishga qaratilganligi bilan farqlanadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishiga ko'ra ijtimoiy subyektlar tomonidan yangi axborotlarni o'zlashtirishlarida bahs-munozara muhim ahamiyatga ega. Bahs-munozara orqali berilayotgan ma'lumotlarni turli hil variantlarda tahlil qilish, o'z mustaqil fikrini bildirish olish va bu jarayonga ijodiy yondashish, shu bilan birgalikda ta'lim olishga nisbatan motivatsiyaning yuqori darajasini ta'minlaydi.

Nazariy jihatdan qaraganda, munozarali-ma'ruza ta'lim jarayoni yoki “trening ishtiroklariga yangi axborotlarni qiziqarli va tushunarli shaklda uzatib berishga va bu jarayonda ularning ishtiroki hamda munosabat madaniyati shakllantirishga xizmat

qiladi. Nomidan ham anglanadiki, munozarali-ma'ruza bahsli bo'lishi kerak. Garchi ijtimoiy subyektning miyasi "yangi axborotlarni izlashga" moyil bo'lsa-da, uning faol eshita olishi jarayon boshlanganidan 10-15 daqiqa o'tib pasayishni boshlaydi. Shu bois pedagog muayyan mavzuda o'z fikrini yetarlicha bildirishi hamda bu ma'lumotlarni turli hil munozarali savollar orqali ifodalashi lozim".

Munozarali-ma'ruzalar talabalar tomonidan kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va nazariy ma'lumotlarni puxta o'zlashtirilishi uchun motivatsiyani yuzaga chiqaradi.

Tadqiqot muammosini hal qilishga qaratilgan tajriba-sinov ishi uchun "Motivatsion yondashuv – shaxsning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish omili", "Motivatsion yondashuv asosida kreativlikni rivojlantirishga halal beruvchi omillar", "Kreativ pedagogika darslarini tashkil qilishda motivatsion yondashuvning o'ri", "Kreativ salohiyat va innovatsion texnologiyalar", "Shaxs kreativligijamiat taraqqiyotining omili sifatida", "Ijodiy fikrlash rivojlantirishda samarali bo'lgan metodlar" kabi mavzularda munozarali-ma'ruzalar tayyorlandi.

2. Blended learning. Lug'aviy jihatdan aralash ta'lim ma'nosini beruvchi innovatsion ta'lim shakllaridan biri hisoblanadigan blended learning axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta'limni tashkil etishda va ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an'anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv ta'lim oluvchini charchatmaydi va o'qishga bo'lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala – tanlangan uslubiyotlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash va kam xarajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Blended learning 3 bosqichda amalga oshiriladi:

"*Hozirgi*" bosqichi bevosita muloqot qilinadi (seminar, forum va hokazo). Bu jarayonda o'qituvchi talabalarning berilgan mavzu bo'yicha savollarini va izohlarini kuzatib boradi.

"*Dastlabki*" bosqichda talaba o'qituvchi yoki boshqa talabalar bilan birgalikda muloqotga, darsga tayyorlanadi. Buning uchun o'qituvchi albatta biror topshiriq berishi zarur. Shunday qilinsa dars vaqtida ortiqcha takrorlanishlar bo'lmaydi va dars samarali bo'ladi. Shunda talabalar dars vaqtida faqat ma'lumot olibgina qolmasdan, murakkab masalalarni yaxshi tushunib oladi.

"*Keyingi*" bosqichda bevosita muloqot qilinadi (seminar, forum va hokazo). Bu jarayonda o'qituvchi talaba dars materialini mustahkamlaydi (test, uy ishi va hokazo). O'qituvchi avval talabalarning savollariga javob beradi va keyin bajarilgan ishlarga izoh beradi. Bunda u talabalarni keyingi mavzuga qiziqtirib yo'naltiradi.

Ma'lumki, bugungi pedagogik ta'limda egallanishi lozim bo'lgan ko'plab manbalar, ma'lumotlar hamda tushunchalar ko'p hollarda talabalar tomonidan mustaqil tarzda yoki pedagogning maslahati bilan amalga oshiriladi. Shu jihatda

olganda Blended learning tuzilmasida faol talaba yoki kreativ talaba tushunchasi muhim o'rinni egallaydi.

3. Startup. Startup ingliz tilidan tarjima qilinganda «boshlovchi, boshlang'ich» ma'nolarini anglatadi. Ushbu termin birinchi marta 1976-yili Forbes jurnalida ishlatilgan. Startup tushunchasi ta'lim tizimida yangi g'oya, kreativ loyiha ma'nolarida ham keng ishlatiladi.

Tadqiqotimizni olib borish davomida respondentlar ihtiyoriga “Kreativlikning asosi-motivatsion yondashuvdir” nomli startup loyihasi e'lon qilindi.

Loyiha maqsadi – motivatsion yondashuv va uning pedagogik imkoniyatlarini tushuntirish, shaxsda kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarini motivlashtirish, kreativ fikrlash hamda motivatsion yondashuvga oid turli chet el hamda mamlakatimizda mavjud manbalarni topish, saralash va turkumlarga ajratish.

Loyiha doirasida respondent-talabalar tomonidan yig'ilgan manbalar asosida tayanch obyektlarimizda “**Mini-ko'rgazma**” tashkil etildi. Ko'rgazmaga yig'ilgan eksponatlar to'g'risida boshqa kurs talabalariga taqdimotlar tayyorlandi va ko'rgazma tadbirlari o'tkazildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, motivatsion yondashuv pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda ichki motivatsiyani shakllantirish, ularning kasbiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish kreativ tafakkurning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, reflektiv yondashuv hamda rag'batlantirish mexanizmlaridan tizimli foydalanish talabalarining mustaqil fikrlashi, noodatiy qarorlar qabul qilish qobiliyati va innovatsion faoliyatga tayyorgarligini oshiradi. Motivatsion asosda tashkil etilgan ta'lim jarayoni nafaqat bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini kuchaytiradi, balki bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хекхаузен. Х. Мотивация и деятельность. Питер. Смысл. 2003. – С. 52.
2. Роджерс, К. Творчество как усиление себя // Вопросы психологии, 1990. N 1.С. 164-168
3. Раджапова З.Т. Дизайн тўғаракларида ўқувчилар ижодий қобилиятини ривожлантиришнинг методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан.бўйича. фалс.докт. ... дис.автореф. – Т.: 2020. – 46-б
4. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для вузов. 3-е издание, пересмотренное. – Москва: 2010. – 448 с. – С. 410-413.